

STORYTELLING TEXNOLOGIYASI ASOSIDA BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

Atayeva Maloxat Isakovna

Abu Rayhon Beruniy nomidagi UrDU

Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi kafedrasida dotsenti

Boltabayeva Matluba Adilbekovna

Sport faoliyati, pedagogika va psixologiya fakulteti

Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi talabasi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda storytelling texnologiyasining pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Xususan, 3–4-sinf o‘qish savodxonligi darsliklari hamda jahon bolalar adabiyoti namunalari asosida hikoya orqali o‘qishga qiziqishni rivojlantirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, maqolada zamonaviy pedagogik yondashuvlar, konstruktivizm nazariyasi, Vygotskiyning ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasi va kompetensiyaviy ta‘lim tamoyillari bilan bog‘liq ilmiy qarashlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: *storytelling, kitobxonlik madaniyati, o‘qish savodxonligi, boshlang‘ich ta‘lim, jahon bolalar adabiyoti, innovatsion texnologiyalar, mutolaa, kompetensiya.*

ABSTRACT

This article analyzes the pedagogical potential of storytelling technology in the formation of a reading culture in primary school students. In particular, the issues of developing interest in reading through stories based on reading literacy textbooks for grades 3–4 and examples of world children's literature are highlighted. The article also presents scientific views related to modern pedagogical approaches, the theory of constructivism, Vygotsky's theory of socio-cultural development and the principles of competency-based education.

Keywords: *storytelling, reading culture, reading literacy, primary education, world children's literature, innovative technologies, reading, competence.*

KIRISH

Yangi globallashuv va raqamli texnologiyalar rivojlangan davrda yosh avlodda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish dolzarb pedagogik masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitobga mehr uyg‘otish,

mustaqil mutolaa ko'nikmalarini rivojlantirish hamda o'qilgan asarni anglash kompetensiyasini shakllantirish ta'limning muhim vazifalaridan biridir.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida o'quvchilarning funksional savodxonligini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu nuqtai nazardan, boshlang'ich ta'limda innovatsion metodlardan foydalanish, xususan storytelling texnologiyasini qo'llash samarali natijalarni beradi.

Storytelling texnologiyasi o'quv materialini hikoya, voqea yoki obrazlar asosida yetkazishga xizmat qiladi. Ushbu texnologiya o'quvchilarning hissiy idroki, tasavvuri va ijodiy fikrlashini faollashtiradi. Natijada bola matnni nafaqat o'qiydi, balki uni his qiladi, voqealarni tasavvur etadi va mazmunni chuqur anglaydi.

Storytelling texnologiyasi konstruktivistik ta'lim nazariyasiga asoslanadi. Mazkur nazariyaga ko'ra, o'quvchi bilimni tayyor shaklda emas, balki faol idrok va tajriba orqali o'zlashtiradi. J.Bruner ta'kidlaganidek, inson tafakkuri voqealarni hikoya shaklida qabul qilganda ma'lumotni yaxshiroq eslab qoladi.

J.Brunerning narrativ tafakkur nazariyasiga ko'ra, inson voqealarni hikoya shaklida qabul qilganda bilimni samaraliroq o'zlashtiradi. Narrativ tafakkur — bu insonning voqea va hodisalarni hikoya tarzida fikrlashi va tushunishi degani. Oddiyroq aytganda inson biror ma'lumotni quruq qoida yoki fakt sifatida emas, balki, voqea, qahramon, hodisa, sarguzashtorqali yaxshiroq anglaydi va eslab qoladi. Masalan: "Halollik yaxshi fazilat." Narrativ tafakkur asosida: "Bir bola yo'lda pul topib oldi va uni egasiga qaytarib berdi. Keyin hamma uni hurmat qildi." Bola ikkinchi holatda fikrni chuqurroq tushunadi. Chunki voqea, obraz va hissiyot ishtirok etadi. Ya'ni, J.Bruner fikriga ko'ra, o'quvchilar bilimni hikoya va voqealar asosida qabul qilganda uni samaraliroq o'zlashtiradi. Boshqacha aytganda, hikoya asosida tashkil etilgan ta'lim o'quvchilarning matnni tushunishi va eslab qolishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli storytelling texnologiyasi boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligi va kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Storytelling texnologiyasi aynan shu jarayonni qo'llab-quvvatlaydi. O'quvchi hikoya tinglash, qayta hikoyalash va voqealarni tahlil qilish orqali nutqiy kompetensiyalarini rivojlantiradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarda obrazli tafakkur ustun bo'lgani sababli hikoya asosida tashkil etilgan darslar ularning yosh psixologik xususiyatlariga mos keladi. Ayniqsa, qahramonlar xarakteri, voqealar rivoji va muammoli vaziyatlar bolalarda kitob o'qishga nisbatan qiziqishni kuchaytiradi.

3–4-sinf o'qish savodxonligi darsliklariga kiritilgan matnlar o'quvchilarning yosh xususiyatlari hamda badiiy-estetik didini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu

darsliklarda ertak, hikoya, rivoyat, sarguzasht va hayotiy voqealar asosidagi matnlar salmoqli o‘rin egallaydi. Masalan, tabiat, do‘stlik, ota-onaga hurmat, Vatanga muhabbat mavzularidagi matnlarni storytelling asosida o‘qitish quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- matn mazmunini chuqur anglash;
- qahramonlarga tavsif berish;
- voqealarni izchil bayon qilish;
- mustaqil fikr bildirish;
- kitob mutolaasiga qiziqishni oshirish.

Dars jarayonida “Voqeani davom ettir”, “Qahramon o‘rnida bo‘lsang nima qilarding?”, “Hikoyaga yangi yakun yarat” kabi topshiriqlardan foydalanish o‘quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantiradi.

Shuningdek, o‘qish savodxonligi darslarida audiohikoyalar, rasmi hikoyalar va rolli o‘yinlardan foydalanish storytelling texnologiyasining samaradorligini oshiradi.

Zamonaviy boshlang‘ich ta‘limda o‘quvchini faqat matnni o‘qishga emas, balki uni tushunish, tahlil qilish, voqealarni baholash va mustaqil fikr bildirishga o‘rgatish ustuvor vazifaga aylanmoqda. Shu nuqtai nazardan, rasmi hikoyalar asosida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish pedagogik jihatdan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Boshlang‘ich sinf yoshidagi bolalarda obrazli tafakkur ustun rivojlanganligi sababli ular vizual materiallarni tezroq qabul qiladi va uzoq muddat eslab qoladi. Psixolog J. Piaje nazariyasiga ko‘ra, bu yosh davrida bolalarda konkret-obrazli fikrlash yetakchi o‘rin tutadi. Shu sababli rasmi hikoyalar o‘quvchilarning matn mazmunini tushunishi, voqealarni ketma-ketlik asosida anglash hamda qahramonlar xarakterini tasavvur etishida samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, J. Brunerning narrativ tafakkur nazariyasida ham hikoya asosida berilgan ma‘lumot o‘quvchi tafakkurida yaxlit obraz hosil qilishi va bilimni mustahkam o‘zlashtirishga yordam berishi ta‘kidlangan.

Bugungi kunda 3–4-sinf o‘qish savodxonligi darsliklarining mazmunida ham vizual yondashuvga alohida e‘tibor qaratilgan. Darsliklarda rangli ilustratsiyalar, komiks elementlari, ketma-ket voqealarni aks ettiruvchi rasmlar hamda muammoli vaziyatli topshiriqlar keng qo‘llanmoqda. Bu esa o‘quvchilarning matnga qiziqishini oshirish bilan birga, mustaqil mutolaa qilish ehtiyojini shakllantiradi. Masalan, matndan oldin berilgan rasmlar asosida voqeani taxmin qilish, hikoyaning davomiga oid fikr bildirish yoki qahramon hissiyotlarini tasvirlash kabi topshiriqlar o‘quvchilarning kreativ va tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi.

Rasmi hikoyalar asosida tashkil etilgan darslarda storytelling texnologiyasi, “story map”, “fishbone”, dramtizatsiya, rolli o‘yin va multimedia vositalaridan foydalanish ta’lim samaradorligini oshiradi. Ayniqsa, elektron darsliklar, audioertaklar, animatsion hikoyalar va interaktiv platformalar bolalarning kitob o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasini kuchaytirmoqda. Raqamli texnologiyalar yordamida yaratilayotgan vizual hikoyalar o‘quvchilarni passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi. Natijada bola voqeani nafaqat o‘qiydi, balki uni his qiladi, tahlil qiladi va qayta ifodalashga harakat qiladi.

Kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda maktab kutubxonalarining zamonaviy faoliyati ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi kunda ko‘plab ta’lim muassasalarida “Bolalar kutubxonasi”, “Mobil kutubxona”, “Elektron mutolaa burchagi” kabi loyihalar tashkil etilmoqda. Kutubxonalarda rasmi kitoblar, jahon bolalar adabiyoti namunalari, interaktiv ertaklar hamda audio kitoblarning ko‘payishi o‘quvchilarning mutolaa doirasini kengaytiradi. Ayniqsa, Hans Kristian Andersen, Astrid Lindgren, Janni Rodari, Antuan de Sent-Ekzyuperi kabi yozuvchilarning rasmi nashrlari bolalarda kitobga mehr uyg‘otishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Ilmiy-amaliy kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, rasmi hikoyalar asosida tashkil etilgan o‘qish darslarida o‘quvchilarning matnni tushunish darajasi, lug‘at boyligi va og‘zaki nutqi sezilarli rivojlanadi. Bundan tashqari, o‘quvchilarda kitobni ehtiyot qilish, muntazam mutolaa qilish va axborotni tanlab o‘qish ko‘nikmalari shakllanadi. Bu esa kitobxonlik madaniyatining muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi.

Jahon bolalar adabiyotining kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishdagi o‘rni

Jahon bolalar adabiyoti namunalari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ma’naviy dunyosini boyitishda muhim vosita hisoblanadi. Xususan, Hans Kristian Andersen, Astrid Lindgren, Mark Tven, Antuan de Sent-Ekzyuperi, Janni Rodari kabi ijodkorlarning asarlari bolalarda yaxshilik, do‘stlik, insonparvarlik va ezgulik kabi fazilatlarni shakllantiradi.

Masalan: Andersen ertaklari orqali mehr-shafqat va sabr, “Kichkina shahzoda” asari orqali insoniy qadriyatlar va “Tom Soyerning sarguzashtlari” orqali mustaqil fikrlash va faollik bo‘lsa, Astrid Lindgren asarlari orqali erkinlik va bolalik dunyosi tasvirlanadi. Ushbu asarlarni storytelling asosida o‘qitishda o‘quvchilar voqealarni dramtizatsiya qiladi, qahramonlar obrazini tahlil qiladi va asar mazmunidan xulosa chiqaradi. Bu esa kitobxonlik madaniyatining shakllanishiga xizmat qiladi.

Jahon adabiyoti namunalarini milliy qadriyatlar bilan uyg‘un holda o‘qitish bolalarda tolerantlik, madaniyatlararo muloqot va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat hissini rivojlantiradi.

Amaliy kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, storytelling texnologiyasi asosida tashkil etilgan darslarda o'quvchilarning matni tushunish darajasi oshadi, og'zaki nutqi rivojlanadi, mustaqil mutolaa qilishga ehtiyoj kuchayadi, darsdagi faolligi ortadi, kitob o'qishga nisbatan ijobiy munosabat shakllanadi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun hissiy-ta'sirchan muhitda tashkil etilgan mutolaa jarayoni samarali natija beradi. Shu sababli bugungi ta'lim tizimida storytelling texnologiyasidan keng foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

Umuman olganda storytelling texnologiyasi boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning samarali vositalaridan biridir. Ushbu texnologiya o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshiradi, nutqiy va ijodiy kompetensiyalarini rivojlantiradi hamda mustaqil mutolaa ko'nikmalarini shakllantiradi.

3–4-sinf o'qish savodxonligi darsliklari hamda jahon bolalar adabiyoti namunalarini storytelling asosida o'qitish orqali o'quvchilarning badiiy-estetik tafakkuri va ma'naviy dunyosi boyiydi. Shu bois boshlang'ich ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni, xususan storytelling metodini keng joriy etish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bruner J. The Culture of Education. — Harvard University Press, 1996.
2. Rodari J. Fantaziya grammatikasi. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021.
3. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi. 3-sinf o'qish savodxonligi darsligi. — Toshkent, 2023.
4. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi. 4-sinf o'qish savodxonligi darsligi. — Toshkent, 2023.
5. Andersen H.K. Ertaklar. — Toshkent: Yosh gvardiya, 2020.
6. Sent-Ekzyuperi A. Kichkina shahzoda. — Toshkent: Sharq, 2021.
7. Lindgren A. Bolalar uchun qissalar. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2022.